

**ANOMAL BOLALARNING RIVOJLANISHIDA YOSHNING MUHIM
XUSUSIYATLARI.**

Qodirova Barchinoy Umidbek qizi

*Nukus davlat pedagogika instituti maktabgacha ta'lim fakulteti defektologiya
(logopediya) ta'lim yo'nalishi I V kurs talabasi*

Annotasiya: *ushbu maqolada inson rivojlanish bosqichlarining yosh xususiyatlari va yoshga bog'liq jarayonlarni normal faoliyati, hamda noto'g'ri rivojlanib ketish sabablari aniq qilib ko'rsatilgan. Nuqson va kasalliklarning paydo bo'lishini o'ziga mos yosh davrlari ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *tug'ma nuqson, shartsiz reflekslar, dizontogenez, fiziologik jarayonlar, rivojlanish davr, negivizm, anomal.*

Ma'lumki har bir odam takrorlanmas individ sifatida dunyoga keladi va inson o'z hayoti davom ettirish uchun onadan tayyor holda o'tgan tug'ma reflekslar, shu bilan birga tug'ma nuqson, kasalliklar hamda hayot davomida orttirgan turli xil xususiyatlar paydo bo'lib, odam shaxsi shakllanib boradi.

Rivojlanish–bir holatdan boshqa murakkabroq holatga o'tish, shu holatdan yangi sifat bosqichiga, oddiy holatdan murakkab holatga yoki pastdan yuqoriga o'tish jarayoni deb tushunish mumkin.

Har bir shaxs qanday bo'lishidan qat'iy nazar rivojlanish bosqichlariga ega bo'ladi. Rivojlanish esa har bir inson yoshida qarab turli xil jarayonlardan iborat. Bu jarayonlar o'z ichiga ijobiy va salbiy turlarni kiritish mumkin. Ijobiy va salbiy rivojlanish jarayonlari insonda juda ko'plab belgilar rivojlanganligidan darak beradi. Misol uchun insonda aql-idrok, tafakkur rivojlanganda u o'z natijasi bilan ijobiy belgilarni namoyon qila boshlaydi. Shuningdek inson organizmida turli xil nuqsonlar ham rivojlanish ya'ni noto'g'ri rivojlanish yoki rivojlanish o'zgarishi va boshqa salbiy rivojlanish orqali sodir bo'ladi.

Inson shaxs sifatida rivojlanishi uchun eng muhim narsa tevarak-atrof muhiti va undagi jarayonlari. Shu bilan birga inson rivojlanishining yosh bilan bog'liq o'ziga xos davrlari bo'lib unda kechayotgan jarayonlar ham takrorlanmas bo'lishi mumkin. Ayniqsa ilk yosh davrida rivojlanish juda tez sur'atlarda kechadi. U. P. Pavlovning “ Organizm qanchalik yosh bo'lsa, nerv sistemasi ham shunchalik moslashuvchan bo'ladi”-deb aytgan fikrlari bolalar tashqaridan bo'ladigan ta'sirga shunchalik ta'sirchan bo'lishi buning isboti bo'la oladi. L.S Vkgotskiy esa rivojlanish davrlarini o'ziga xosligini ko'rsatib, “ Bola rivojlanishida shunday yosh davrlari borki, bunda muayyan jarayon , qaysidir funksiyasi tezroq shakllanadi, boshqa hech qaysi bir yosh davrida bu kabi to'laqonli darajada to'laqonli rivojlanmaydi”-deb ta'kidlab o'tadi.

Insonning rivojlanishida, uning shaxsiy sifatida tashkil topishida biologik va ijtimoiy omillar muhim o'rin tutadi. Inson shaxsi tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil uning o'zi orttirgan tajribalarini ta'lim- tarbiya orqali bolalarga berilishidir. Ilmiy manbalarda inson shaxsi shu ikkita omil ta'sirida rivojlanishi ko'rsatib o'tiladi. Ulardan birinchisi biologik omillar

ta'siri bo'lsa, ikkinchisi, odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhit ta'siridir. Har bir takomillashib borayotgan shaxs nerv sistemasi, ya'ni bosh miya taraqqiy etayotgan odam psixikasining moddiy substratidir. Bu esa yoshga bog'liq holda taraqqiy etib boradi. Masalan, bola 1 yoshga to'lguncha miyasining og'irligi ikki marta oshadi. To'rt- besh yoshda yetganda esa bosh miya og'irligi uch marta oshadi. Miyaning o'sushi yigirma yoshgacha ba'zan undan keyin ham davom etadi. Bola bir yoshga to'lib ikki yoshga qadam qo'yganda bosh miya po'stlog'ining faqat odamga xos bo'lgan yuksak funksiyasi tarkib topadi. I.P. Pavlov buni " ikkinchi signal sistemasi" deb aytgan. Bu orqali tafakkur hamda og'zaki va yozma nutqning nerv- fiziologik jihatlari shakllanadi.

Yosh va individual xususiyatlar sensor, mnemik verbal va mantiq - psixofiziologik funksiyalarning dinamikasi hamda organik ehtiyojlari tuzilishini belgilaydi. Yuqoridagi sifatlar rivoji ontogenetik evakuatsiyadan iborat bo'lib, ular filogenetik dasturga asoslanib faoliyat ko'rsatadi.

Yuqorida shaxsning yoshga bog'liq me' yorda rivojlanish qonuniyatlari aytilgan bo'lsa, shu bilan birga turli chekinishlari, nuqson, buzilishlar holatlar ham bo'ladi, Bunday holatlar " dizontogenez" (ontogenez -rivlanish,diz-buzilish, kamchilik) atamasi bilan ta'rif berilgan bu organizmning individual rivojlanishidagi buzilishlari. "Dizontogenez" atamasining sinonimi - "buzilgan rivojlanish"dir Inson rivojlanish yosh davr bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, agar bu yoshda mos jarayonlar kuzatilmasa, biz qaysidir buzilgan rivojlanishni sezishimiz mumkin. Misol uchun quyidagi yoshga mos holda rivojlanish bosqichlariga e'tibor qaratsak, odam tug'ildandan boshlab 5 ta rivojlanish davriga bo'linadi:

- Bolalik davri 16-18 yoshgacha
- Navqironlik davr 16-21 yosh
- Yetuklik davri 22-60 yosh
- Keksalik davr 60- 75 yosh
- Qarilik davr 75 yoshdan yuqori davrlarni o'z ichiga oladi

Bolalik davri rivojlanishning juda faol davri bo'lib, u ham alohida davrlarga ajralgan: chaqolaqlik, go'daklik, maktabgacha yoshdagi, kichik maktab yoshi va o'smirlik davrlari.

Chaqolaqlik davr bola tug'ilganda bir oylik davrni ichiga olib , bu davrda kichik qon aylanish, nafas olish va ovqat hazm qilish sistemasi rivojlanib boshlashi kerak.

Go'daklik davri bola 1 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu yoshda sezgi va mator funksiyalarini rivojlantirish, nutq va ijtimoiy taraqqiyotni rivojlantirish uchun juda yuqori intensivlik bilan ajralib turadi bu esa bolaning aqliy rivojlanishi uchun juda muhim. Aqliy rivojlanishi tez sur'atlarda maksimal daraja da ifodalanadi balki yangi shakllanish hissi bilan ham ajralib turadi. Avvaliga borada organik ehtiyojlarga ega, shartsiz reflekslar ehtiyojiga tayangan holda, uning asosida boshlang'ich moslashuvi vositasi paydo bo'ladi. Rivojlanishning ushbu bosqichida tug'ma , so'zsiz reflekslar belgilangan ehtiyojlarni qondira olmaydi. Bola hayotining birinchi yilida yanada mustaqil bo'lishga intiladi. Mustaqil bo'lish istagi bolaning salbiy harakatlarini namoyon qilishi mumkin. Erkinlik hissi tufayli bolalar kattalarga bo'ysunishni xohlashmaydi. Kattalarni rad etishi bola negivizmini ko'rsatadi:

qichqirishi, yig'lash va hokazolar. Bunday namoyondalari S.YU tomonidan o'rganilgan hayotning 1- yilidagi inqirozning nomi deyiladi.

Maktabgach yosh(3-7 yosh) davrida borada idrok tafakkur va nutqi rivojlanishi kerak. Bu yoshdagi bolalarda o'zboshimchalik bilan vositalarning rivojlanganligi sababli vizual shaklli fikrlash o'zgaradi.fikrlash jarayoni nutq rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun kattalar bolalar bilan muloqotda o'g'zaki- mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Fikrlash qanchalik keng rivojlansa nutq ham shuncha yaxshi rivojlanib boradi va bolaning kognitiv shohasida o'zgarishlar va rivojlanishlar kuzatiladi.

Maktab yoshining boshlang'ich davrida ham dastlab bolalar turli vazifalarni hal qilish, birinchi navbatda o'qituvchi bilan bosqichma-bosqich harakat qilish, Keyinchalik ular o'z-o'zidan harakatlarni rejalashtirish kabi ko'nikmalarni shakllantirish , ichki harakatlarini rejasi ham shakllanadi. Bu davrda aqliy funksiyalardan xotira, takakkur, idrok, nutq sifatida ishlab chiqilgan, 7 yil ichida idrokni rivojlantirish yuqori darajaga chiqadi. Bola obyekt ranglari va shakllarini sezadi. Bola xotirasida ham o'zgarish bo'lib xotira usullari shakllanib boshlaydi. Bolalar asosan aniqlik asosida tushuntirilgan moddiy narsalar ularning xotirasida oson saqlanib qoladi masalan: kishilarning ismlari kabi.

O'smirlarnig(o'g'il va qiz bolalar) rivojlanishi 'ziga xos xususiyatlari:

Bu davrda juda katta ruhiy va fiziologik o'zgarishlar sodir bo'lib, inson hayotini eng qiyin o'tish davri desak ham bo'ladi. Birinchi navbatda bu davrda endokrin sistemasi o'zgaradi. Qonga to'qima va organlar o'sib , rivojlanishiga hissa qo'shadigan gormonlar ishlab chiqarila boshlaydi. Shuning uchun bolalar juda tez sur'atlarda o'sib boshlaydi. Bu jarayonlar o'g'il bolalarda 13- 15 yoshlarda, qizlarda esa 11- 13 yosh oralig'ida sodir bo'ladi. Bu davrda asosan sklet- mushak tizimi , tana nisbatida juda katta o'zgarishlar ro'y beradi. Talaffuz ham o'zgaradi bu asosan o'g'il bolaga yaqqol namoyon bo'ladi. Tananing rivojlanishi juda tez ketayotganligi sababli yurak, o'pka va miyaga qon ta' minotida qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu davr o'tishi o'ta qiyin kechib ayrim hollarda turli ruhiy kasalliklar paydo bo'lishi ham mumkin. Chunki bu davrda yuqori darajada hissiy o'zgarishar va kayfiyat boshqaruvi va hakozlar bo'ladi. Bu jarayonlar shaxsiyat xususiyatlari shakllantirish bilan bog'liq. Bu o'smirlig davrning o'zi maktab yosh davri ichiga kirib , asosan eng ko'p rivojlanish jarayonlari shu yosh davrlarda kechadi. O'sish va rivojlanish boshqa hech qaysi davrida bunchalik ko'p xususiyatlar rivojlanmaydi. Ko'pincha o'sish va rivojlanish o'rtacha 25 yoshgacha jadal bo'lib , undan keyin to'xtaydi.

Yuqoridagi yoshga bog'liq jarayonlar o'sish va rivojlanishning normal xususiyatlari hisobladi. Agarda bunday fiziologik, ruhiy jarayonlar va har bir yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lmasa, bunday organizm qaysidir jihatdan noto'g'ri rivojlanayotganidan darak beradi. Shu bilan birga qaysidir kasallik yoki nuqsonlarning ham o'ziga yarasha yosh davrlarda kelib chiqishi jihatidan bir biridan farq qiladi. Misol uchun o'smirlarda ko'p uchraydigan ruhiy kasallik kichik yoshdagi bolalarda kuzatilmaydi. Statistika ko'ra dunyo bo'ylab o'smirlarning 10-20% ruhiy kasalliklarga duch kelishadi, biroq ularning ayrimlariga yetarlicha tashxis qo'yilmagan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma' lumotiga ko'ra psixologik xastalikning aksariyati 14 yoshgacha bo'lgan davrda

boshlanadi. Afsuski , ko‘pincha xastalik boshlang‘ich davri aniqlanmaydi. Natijada esa ruhiy xastalik umrbod davom etish ehtimoli ortadi.

Shizofreniya ham ruhiy xastalik bir turi hisoblanib u ham ma‘lum bir yosh davrlarda sodir bo‘ladi. Ko‘proq bu xastalik 18- 35 yoshgacha bo‘lgan davrda kuzatiladi. Bu xastalikni birinchi bo‘lib nemis psixatri Ye. Krepelen 1898- yilda uni “ Ilk esi pastlik” deb nomlagan. 1911- yiga kelib esa Shvetsiya psixatri Ye. Bleyler kasallik klinik belgilarini chuqur o‘rganib, assotsativ jarayonlarni buzilib , buning natijasida ruhiyatni parchalanishini hisobga olib “Shizofrenoya” deb nomlagan. Uning paronoid turi eng ko‘p tarqalgan bo‘lib ko‘pincha 40-50 yoshlarda yuzaga chiqadi

Polimiyelit - markaziy nerv sistemasi, xususan orqa miya , gohida bosh miyaning zararlanishi bilan ifodalangan o‘tkir infeksiyon kasallik bo‘lib , har xil belgilar: qisqa muddatli isitma, qo‘l, oyoq, gavda, ba‘zan yuzda tarqoq dalalarni yuzaga keltiradi. Polimiyelit yuqqanlarning faqat 0,2-1 % i bu kasallik bilan og‘riydi. Kasallikning 60-80% i 4 yoshgacha bo‘lgan bolalarga to‘g‘ri keladi.

Quloq kasalliklari ham ma‘lum bir yosh davrlarda ko‘proq uchraydigan turlari bor. Yosh bolalarda o‘rta quloq otiti ko‘proq uchraydi. Chunki otit ko‘pincha yuqumli kasalliklardan keyin asorat sifatida rivojlanadi (qizamiq, tepki, ko‘k yo‘tal, qizilcha). Chaqoloqlarda bu kasallikka sabab: chalqancha yotqizish bolani burnidagi shilimshiq osongina halqumga, u yerdan Yevstaxiy nayi orqali nog‘ora bo‘shlig‘iga o‘tishidir. Bunda bola yona uxlaydi, tana harorati 40^o gacha oshadi,og‘riq zo‘rayishi tufayli, och qolsa ham emmaydi,bolta parda yorilgandan keyin ahvoli yengillashadi.

Otoskleroz suyak qobig‘ining o‘ziga xos kasalligi bo‘lib, yoshlarda ham uchraydi va eshitish qobiliyati keskin pasayadi. 80-85% ayollarda , 70% i 20-40 yoshida boshlanadi -bu irsiy kasallik degan taxmin bor. Jarrohlik yo‘li bilan eshitish qobiliyatini 80% tiklash mumkin.

Nutq kasalligi orasidagi “burmalar osti laringiti “ -o‘tkir katalaringitni bir turi bo‘lib burmalar osti tovush bo‘shlig‘ida hosil bo‘ladi. Odatda bu 2 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda uchraydi. Kasallik boshlanishi odatda burun yoki xiqildoq shilliq pardasining o‘tkir yallig‘lanishi bilan bog‘liq. Belgisi: to‘satdan yarim kechada to‘satdan quv- quv yo‘tal huruji boshlanadi.

Shunday qilib har qanday rivojlanish davrlarining o‘ziga xos yosh davrlari bo‘lib , har qaysi bosqichda inson yoshiga mos belgi va xususiyatlari normal xususiyatlari qarab rivojlanishning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri kechayotganini bilish mumkin. Bu bilan har qanday hayot davomida paydo bo‘ladigan kasallik va nuqsonlarni erta aniqlab , ularning oldini olishga erishsak bo‘ladi. Shu bilan birga turli xil sabablar bilan yuzaga keladigan kasalliklar ham yoshga bog‘liq holda bo‘lib, ular faqat aynan qaysidir davrlarda yuzaga keladi va inson boshqa bir yosh davrlarida bunday kasallik yuzaga chiqishi mumkin bo‘lmagan turlari ham uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.R. Po‘latxo‘jayeva “ Defektologiyaning klinik asoslari” Toshkent 2013
2. Ya. E . Checherina, D. I. Isoyeva, E. V. Bondareva “ Erta tashxis va ilk aralashuv “ Toshkent 2010

3.P.M. Po‘latova “Maxsus pedagogika” Toshkent 2005